O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

# “YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVATSION VA INVESTITSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

# MATERIALLARI

(2025 yil 24-25 oktabr)



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI**

# “YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVATSION VA INVESTITSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**

# MATERIALLARI

**(2025 yil 24-25 oktabr)**

**SAMARQAND 2025**

**UO'K:**330.322:330.15
B 49
**KBK:** 65.9(5O')-56

**"Yashil iqtisodiyotda innovatsion va investitsion faoliyatni rivojlantirish: muammo va yechimlar"**. 2025-yil 24-25 oktabr, Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari – Samarqand: SamISI, 2025 - 910 bet.

**To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:** assistent D.A.Miyassarov.

**Nashr uchun mas'ullar:**

A.Bektemirov - iqtisodiyot fanlari doktori, prof., N.H.Ruzibayeva - dotsent, PhD, A.A.Turayev - dots.v.b., PhD, A.A.Bekmurodov - dots.v.b., PhD, S.N.Baratov dots.v.b., PhD, B.M.Quliyev - dots.v.b., PhD, O.Y.Ashurova - katta o'qituvchi, G.T. D.F.Nasirov - katta o'qituvchi, G.T.Qarajanova - katta o'qituvchi, E.A.Nozimov - katta o'qituvchi, Z.X.Rafiyeva - assistent, G.A.Xolmirzayeva - assistent, M.S Qarshiyeva - assistent, Y.J.Xaknazarova - assistent, A.A.Axrorov - assistent.

**Sahifalovchilar:** O.Yu.Ashurova, A.A.Turayev, E.A.Nozimov, G.T.Qarajanova, Z.X.Rafiyeva, M.S Qarshiyeva, G.A.Xolmirzayeva,

"Yashil texnologiyalarga investitsiyalar: barqaror rivojlanish yo'lidagi muammolar va imkoniyatlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarida yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish tendensiyalari va strategiyalarini ishlab chqishga, energiya tejamkor va ekologik toza ishlab chiqarishda yashil texnologiyalar va ularni rivojlantirishga, yashil iqtisodiyotda investitsion va innovatsion faollikni oshirishdagi muammo va yechimlarga, yashil texnologiyalarni rivojlantirishda inson kapitali va uning sifatini oshirishga, yashil texnologiyalarni moliyalashtirish manbalari ko'lamini kengaytirish va samaradorligini oshirishning dolzarb masalalariga hamda bu yo'nalishdagi mavjud muammolarni aniqlashga va ularning yechimlariga bag'ishlangan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va ma'ruza tezislari o'rin olgan.

*Ilmiy to'plam Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, talabalari, magistrlar, tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilar va soha mutaxassislariga mo'ljallangan.*

***Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan, raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas'ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to'g'ri kelmasligi mumkin***.

**ISBN:** 978-9910-09-586-3

***© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2025***

**To‘rayev Abduvoxid Quldoshevich**
*SamISI mustaqil izlanuvchisi*

# YASHIL TEXNOLOGIYALARGA INVESTITSIYA KIRITISH ORQALI NAVOIY VILOYATINING TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Annotatsiya:** Maqolada Navoiy viloyatida yashil texnologiyalarga yo‘naltirilgan investitsiyalarning turizm sohasini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va hududning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilingan hamda bu bo‘yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

***Kalit so‘zlar:*** *yashil iqtisodiyot, investitsiya, turizm, barqaror rivojlanish, Navoiy viloyati.*

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga minimal zarar yetkazish va energiya samaradorligini ta’minlash masalalari kun tartibiga chiqdi.

Navoiy viloyati – yirik sanoat markazi sifatida tanilgan bo‘lsa-da, unda ekoturizm, geoturizm, ziyorat turizmi va cho‘l turizmi kabi maxsus turlarni rivojlantirish imkoniyatlari keng. Biroq bu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun yashil texnologiyalar asosida infratuzilma modernizatsiyasi zarur.

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi – yashil texnologiyalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar yordamida Navoiy viloyati turizmini iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror tizimga aylantirish istiqbollarini tahlil qilishdir.

Navoiy viloyati geografik jihatdan cho‘l va tog‘ mintaqalari tutashgan hududda joylashgan bo‘lib, Zarafshon daryosi vodiysi, Nurota tog‘lari, Sarmishsoy petrogliflari, Raboti Malik karvonsaroyi, Qiziltepa ziyoratgohlari kabi obyektlar bilan mashhur. Shunga qaramay, turizm infratuzilmasining aksariyati hali energiya tejovchi va ekologik jihatdan toza yechimlarga moslashmagan.

Viloyatda 2024 yilda 300 mingdan ortiq ichki va 25 mingdan ziyod xorijiy sayyoh qabul qilingan bo‘lib, bu raqam so‘nggi uch yilda 2 barobarga oshgan. Shu sababli, yashil investitsiyalar oqilona yo‘naltirilsa, bu ko‘rsatkichni yanada ko‘paytirish mumkin.

Tadqiqotimizga ko‘ra, yashil texnologiyalar sohasiga kiritilgan har bir 1 mlrd so‘m investitsiya 3–4 yil ichida o‘zini qoplaydi. Quyidagi yo‘nalishlarda investitsiya samaradorligi yuqori baholanadi:

**1-jadval.**

**Yashil texnologiyalar sohasiga kiritilgan investitsiya natijasida kutilayotgan foyda darajasi**

| Yo‘nalish | Investitsiya turi | Kutilayotgan foyda |
|---|---|---|
| Quyosh energiyasi | Mehmonxonalarda 50 kVt quvvatli quyosh panellari o‘rnatish | 20–25 % elektr xarajatlari tejaladi |
| Ekologik transport | Elektr avtobuslar, velosiped ijarasi tizimi | Yo‘lovchi transportida $CO_2$ chiqindilari 30 % ga kamayadi |
| Chiqindilarni qayta ishlash | Turistik maskanlarda chiqindilarni saralash va qayta ishlov tizimi | Hudud tozaligi va ekologik imidjning oshishiga erishiladi |

Ushbu tahlil shuni ko‘rsatadiki, yashil texnologiyalar nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali investitsiya yo‘nalishidir. Xususan, investitsiyalar kiritilishi natijasida:

- Navoiy viloyatida yangi ish o‘rinlari yaratiladi (taxminan 500–700 ta);
- mahalliy aholi orasida ekologik ong oshadi, yoshlar uchun “yashil kasblar” masalan, energiya muhandisi, chiqindilar menejeri, eko-gid kabi yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ladi;
- viloyatda turizm obyektlarining energiya mustaqilligi oshib, sanoat shovqini va transport ifloslanishi kamayadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasini qaraydigan bo‘lsak, Ispaniyada “Costa del Sol” hududida yashil mehmonxonalar tarmog‘iga kiritilgan investitsiyalar 7 yil ichida 60 % turist oqimini oshirgan, Janubiy Koreyada ekologik transport tarmoqlari orqali sayohatchilar uchun “Zero Emission Tour” dasturi joriy etilgan.

Mazkur modellar asosida Navoiy viloyatida ham “Green Desert Route” brendi ostida Cho‘l turizmini rivojlantirish mumkin.

Bizning fikrimizcha, quyidagi mexanizmlar istiqbolli hisoblanadi:

- Davlat-xususiy sherikchiligi (DXSh) asosida “yashil mehmonxona” loyihalari;
- Investitsion grantlar va preferensiyalar – ekologik loyiha uchun soliq imtiyozlari;
- Mahalliy “Green Found Navai” jamg‘armasi – turizmni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan hududiy fond;
- Xalqaro donorlar bilan hamkorlik (UNWTO, ADB, JICA) orqali texnologik transferlar.

Yashil texnologiyalarga investitsiya kiritish Navoiy viloyati turizm tarmog‘ining strategik rivojlanish yo‘lini belgilaydi. Tadqiqotimizga ko‘ra, bunday investitsiyalar:

- iqtisodiy jihatdan – energiyani tejash, xarajatlarni kamaytirish, investitsiya oqimini ko‘paytirish;
- ijtimoiy jihatdan – yangi ish o‘rinlari yaratish, ekologik madaniyatni shakllantirish;
- ekologik jihatdan – $CO_2$ chiqindilarini kamaytirish, tabiiy muhitni asrashga yordam beradi.

Navoiy viloyati uchun bu yo‘nalish kelajakda “yashil cho‘l turizmi” brendi ostida xalqaro e’tirofga erishish imkonini beradi.

Yuqoridagi tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi takliflarni o‘rinli deb hisoblaymiz:

- Navoiy viloyatida “Yashil turizm investitsiya dasturi – 2030”ni ishlab chiqish;
- har bir tuman kesimida energiya samaradorligi auditi o‘tkazish;
- turizm sohasida “yashil sertifikat” tizimini joriy etish;
- “Green Navai Forum” xalqaro investitsiya anjumanini tashkil etish;
- talabalar uchun “Ekotex va Turizm” yo‘nalishida innovatsion startaplarni qo‘llab-quvvatlash.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. Karimov M. (2025). Tourism Sustainability in Uzbekistan: Challenges and Prospects. MDPI Economies.
2. Sun J. (2025). Green credit, tourism technology innovation, and sustainable development of tourism industry. Journal of Tourism Economics.
3. Butaboev M., Akhunova Sh. (2023). Uzbekistan’s Transition Strategy to a Green Economy and Its Significance. International Science Journal of Management, Economics & Finance.
4. Ruzmetov B. (2023). Regional features of investment activeness in the Republic of Uzbekistan. E3S Web of Conferences.
5. Bozorov A. (2024). Navoiy viloyatida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining iqtisodiy samaradorligi. O‘zbekiston Iqtisodiy Tahlil Jurnali, № 3.
6. Asian Development Bank (2025). Private-Sector Green Transformation in Uzbekistan. ADB Report.



**Nazarov Ulmas Alisherovich**
*Sharof Rashidov nomidagi*
*Samarqand davlat universiteti Magistranti*


## RESPUBLIKADA OLIY TA’LIM MUASSASALARINING RIVOJLANISH HOLATI VA TENDENTSIYALARI TAHLILI


**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta’lim xizmatlari tizimini innovatsion rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, ushbu sohada samaradorlikni oshirish bo‘yicha xalqaro tajribalardan keng ko‘lamda foydalanish, ta’lim xizmatlari bozorining konyunkturasi o‘zgarishi hamda oliy ta’lim muassasalarining malakali